

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA  
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA**

**Toshkent – 2024**

|  |     |
|--|-----|
| <i>Normurodova S.B., Shodmonov R.G'. Til va marketing .....</i>  | 166 |
| <i>Odilova D.O., Shodmonov R.G'. East asia counturies languages and cultures .</i>   | 171 |
| <i>Nabiyeva N.A., Shodmonov R.G'. Til o'qitish usullari; o'rganilayotgan tillarni o'qitish uchun qo'llaniladigan usullar, til o'rganishning foydali tomonlari.....</i> | 176 |
| <i>Narzullayeva A.Sh., Shodmonov R.G'. Onlayn til o'rganish platformalari .....</i>  | 180 |
| <i>Junaydullaxonova M.A., Shodmonov R.G'. Kitobxonlik va uning mohiyatini anglash .....</i>  | 184 |
| <i>Yaxshiboyeva M.B., Shodmonov R.G'. Dunyo tillarining soni va turkiy til .....</i>   | 189 |

## II SHUBA

|  |     |
|--|-----|
| <i>Абдалов А.Б. Роль развития рынка ценных бумаг в дальнейшем повышении инвестиционной привлекательности страны .....</i>  | 193 |
| <i>Saidova I.X. Investitsion muhit va uni belgilovchi omillar (kambag'allik darajasi va o'zbekiston sharoitida unga ta'sir qiluvchi omillar.) .....</i>                | 199 |
| <i>Sunnatullayeva M.G'. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar - xalq kelajagi uchun poydevor masalalari.....</i>  | 205 |
| <i>Kenjayev N. Temuriyzoda shohruh mirzo hukumronligi davrida temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati.....</i> | 208 |
| <i>Атаджанова А.У. Определить концентрированной системы в составе чёрный смородины выращиваемой в хорезмской области.....</i>  | 211 |
| <i>Mohinur Sh.Sh., Shodmonov R.G'. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limning o'rni.....</i>   | 213 |
| <i>Sobirjonova D., Shodmonov R.G'. Koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.....</i>   | 218 |
| <i>Sayfullayeva F., Shodmonov R.G'. Bolalardagi senzitiv davr va nutq rivojlanishi .....</i>   | 222 |
| <i>Xamidullayeva M.J., Shodmonov R.G'. Maxsus pedagogika va uning bo'limlari .....</i>   | 226 |
| <i>Alieva F., Shodmonov R.G'. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar .....</i>  | 230 |
| <i>Qurbonova K.A., Shodmonov R.G'. Bolalarda musiqani rivojlantirish.....</i>  | 234 |
| <i>Komilova R.D., Shodmonov R.G'. Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar .....</i>  | 237 |
| <i>Turlibekova O., Shodmonov R.G'. Aqli zaif tushunchasi .....</i>   | 242 |
| <i>Abdugafurova A., Shodmonov R.G'. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar....</i>   | 247 |
| <i>Zayniddinova M.Sh., Shodmonov R.G'. Daun sindromli bolalar .....</i>  | 251 |

**I SHUBA**

**Qahramonova S. O'. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim tizimining ilmiy va innovatsion jarayonlar bilan uzviylikini ta'minlash.....** 10

**Sobirxo'jayev X. B. Ta'lim tizimi islohotlari, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi islohotlarning o'ziga xos jihatlari masalalari.....** 13

**Homidov J. Z. Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....** 16

**Qodirova N., Islomova G. U. Ta'limda innovatsion islohotlarni qo'llashning afzalliklari.....** 21

**Tursunov F. B. Ta'lim tizimi va ilm-fan sohasidagi islohotlarning ahamiyati.....** 25

**Matchonova M. M. Uchinchi renessans – ta'lim va taraqqiyot: o'tmish, bugun va kelajak.....** 28

**Ismoilov N.B Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda medita'limning o'ziga xos jihatlari.....** 33

**Mukhammadjonova D. Advancing society through reforms in education, science, and innovation.....** 36

**Baxrueva H.A., Shonazarova M. Роль коммуникативной культуры учителя в повышении качества образования.....** 41

**Sobirxo'jayev X. B. Ta'lim tizimi islohotlari, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi islohotlarning o'ziga xos jihatlari masalalari.....** 45

**Jumanova Sh. I., Tojkarimova M. A. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.....** 49

**Tojkarimova M. A. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta'lim** 53

**Xalikova M. Texnologik tamaddun kontekstida axborot-ta'lim muhitini tashkil etishning bazaviy imperativlari.....** 57

**Pirniyazova M. K. Vitagen tajriba asosida talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari.....** 67

**Maxmudova Z. M. Ta'lim tizimini taraqqiyotini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash.....** 81

**Umarov T.M. Psychological help in adjusting primary class students to school.** 85

**Fayzullayeva M.A. Inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarning o'рни va ahamiyati.....** 89

**Abdukholiqova M.I. Specific characteristics of the reforms and transformation process implemented in the uzbekistan education system.....** 93

changes after depending to other country. For example, Macou and south Korea. South Korea's culture after Japan is also some kind of similar. Not only culture also their foods and behaviours common. East Asia countries languages letter mostly in graphical form. All in one county's location and neighbouring with is essential to cultural behaviour.

## TIL O'QITISH USULLARI; O'RGANILAYOTGAN TILLARNI O'QITISH UCHUN QO'LLANILADIGAN USULLAR, TIL O'RGANISHNING FOYDALI TOMONLARI

**Nabiyeva Nazokat Abdurashid qizi<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi  
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

*<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis yurtimizda til bilish darajasi haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Kattalarning ingliz tilini bilish darajasini ham o'rganamiz. Til o'rganishning afzaliklari hamda til o'rganishning eng samarali usullarini bilib olamiz.

**Kalit so'zlar:** EPI, EF, Xorijiy tillar, Xorijiy davlatlar, Duoling, BBC news, BBC Learning English

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bugun bitta kitob o'qigan bola ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin" degan gaplari bejiz emas. Bugungi kunda jamiyatda inson o'z o'rniga ega bo'lishi uchun uning o'z fikri, dunyoqarashi va eng asosiysi bilimi bo'lishi kerak. Yildan-yilga hayot rivojlanib atrofimizdagi muhit ham insonlar ham o'zgarib bormoqda. Biz ham bir yerda qotib qolmay, o'zimizni ko'plab sohlarda bilimimizni rivojlantirishimiz uchun albatta til o'rganishimiz kerak. SSSR davrida o'zbek xalqi asosan rus tilida gaplashgan va bu til o'sha davr uchun eng rivojlangan til edi yillar o'tib bora-bora ingliz tili ham rivojlanib bugungi kunda oddiy bir batareyadan tortib eng zamonaviy kompyuter deysizmi hamma soha ingliz tili bilan bog'liq.

EF English Proficiency Index <sup>29</sup>(EF EPI) kattalar o'rtasida ingliz tilini bilish darajasini o'lchaydi va ushbu ko'rsatkich bo'yicha mamlakatlarni joylashtiradi. U 100 ta mamlakat va mintaqadagi 2,1 million kishini sinovdan o'tkazishga asoslangan. (2022y). O'zbekiston 111 mamlakat ichida 89-o'rinni egalladi. Barcha davlatlar tilni bilish darajasiga ko'ra 5 toifaga bo'lingan. O'zbekiston 446 ball to'plagan holda juda past ko'rsatkichga ega davlatlar toifasiga kirdi. Shu bilan birga,

---

<sup>29</sup> English Proficiency Index

Markaziy Osiyo davlatlari orasida O'zbekiston eng yaxshi natijani ko'rsatdi: Qirg'iziston 91 (442 ball), Qozog'iston – 99 (420 ball), Tojikiston – 106 (397 ball) o'rinni egalladi. Poytaxtlar bo'yicha Toshkent juda past ko'rsatkichli guruhga tushib qolgan bo'lsa, Astana va Bishkek aholisi yuqoriroq natija ko'rsatib, chet tilini bilish darajasi past bo'lgan guruhga tushib qolgan.


Reytingda 661 ball bilan Niderlandiya yetakchilik qilmoqda, Singapur (642 ball) va Avstriya (628 ball) uchinchi o'rinda.



**1-rasm:2022-yilda o'tkazilgan EPI Markaziy Osiyo mamlakatlari natijasi<sup>30</sup>**


Til o'rganish har bir insonda har xil bo'ladi Kimdir tez o'rgansa, yana kimgadir anchagina yillar va vaqt ketadi. Lekin shunday bo'lsa ham ta'lim olishning anchagina afzalliklari bor.

<sup>30</sup> EPI natijalari



**2-rasm. til o'rganishni afzalliklari** <sup>31</sup>

Yuqorida til o'rganishni afzalliklari bilan qisman bo'lsa ham tanishdik. Endi til o'rganishning samarali usullari bilan tanishsak.



**1-rasm. Til o'rganishning samarali usullari** <sup>32</sup>

<sup>31</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>32</sup> Muallif ishlanmasi

**O'rganilayotgan tildagi so'zlarni hayot tarzimizga singdirishni** boshlashimiz kerak. Masalan o'zimiz kundalik hayotimizda ishlatadigan narsa-buyumlarimizni shu tildagi so'zlar bilan nomlab chiqishimiz mumkin. Bundan tashqari musiqalar tinglashimiz ham bizga yordam beradi..Shu yo'l bilan asta-sekin til o'rganishni boshlaymiz.

**Til o'rganishning yana bir samarali usuli** – shu tilda so'zlashuvchilar bilan suhbatlashish. Tilda ravon gapiradigan odamlar bilan suhbatlashish tinglash qobiliyatingizni yaxshilashga va tilning talaffuzini o'zlashtirishingizga yordam beradi. Bugungi kunda odamlarga HelloTalk, Tandem yoki Speaky kabi yangi tillarni o'rganishga yordam berish uchun maxsus ishlab chiqilgan ko'plab onlayn platformalar mavjud.

**Til kurslariga borish.** Kursda qatnashish yangi tilni o'rganishning an'anaviy usullaridan biridir. Til kursida malakali o'qituvchidan til asoslarini o'rganasiz. Shuningdek, siz sinfdagi boshqa talabalar bilan tilni mashq qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

**Til o'rganish ilovalari** so'nggi yillarda mashhurlikka erishdi, Duolingo, Babbel yoki Memrise kabi ilovalar band bo'lganlar va darsga ko'p vaqtlari bo'lmaganlar uchun juda mos keladi. Ushbu ilovalar turli interaktiv mashqlar, o'yinlar va viktorinalar orqali yangi tilni o'rganishning qiziqarli usulini taklif etadi.

**Podkastlar eshitish.** So'zlarni qanday qilib to'g'ri talaffuz qilishni tushunishga yordam beradi va qulog'ingizni tilning ritmlari va tovushlarini tan olishga o'rgatadi. Internetda ko'plab podkastlar mavjud, masalan, BBC news, BBC Learning English va boshqalar.

**Kundalikka yozing.** Yozishni mashq qilishning ajoyib usuli. Bu usul fikringizni yozma shaklda erkin ifoda etishingizga yordam beradi. Siz o'z kuningiz, fikrlaringiz, yoki xayolingizga kelgan boshqa narsalar haqida yozishingiz mumkin. Bu mukammal bo'lishi shart emas, lekin u grammatika va jumlar tuzilishini yaxshilashga yordam beradi.

**Til o'rganishga qiziqadigan sherigini toping** - agar atrofingizda til o'rganishga qiziqadigan yaqinlaringiz bo'lsa til o'rganish sizga unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Sababi sherigingiz bo'lsa o'rganayotgan tilingizda muloqot, muhokama va munozara qilishingiz mumkin.

**Umumiy lug'atni o'rganing** Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, ona tilida so'zlashuvchilar 15 000 dan 20 000 gacha so'z turkumlarini bilishadi. Bu bilan ular o'zak so'z va uning barcha variantlarini bildiradi. Masalan, speak spoke spoken va hokazo. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eng keng tarqalgan 800 dan 1000 tagacha ildiz so'z va o'zgarishlarni o'rganish orqali siz tilda tez va samarali gapirishni o'rganishingiz mumkin. Bu kundalik sharoitda tushunchangizni tezda shakllantirishga yordam beradi, Bu sizga asosiy suhbatlarni o'tkazish va kuzatish imkonini beradi.

### **Sizga mos uslubni toping**

Til o'rganayotganda foydalanishingiz mumkin bo'lgan juda ko'p turli xil vositalar, uslublar va usullar mavjud. Ba'zan ularning barchasini sinab ko'rish va ishlatish biroz qiyin bo'lib tuyulishi mumkin. Buning o'rniga siz bir nechtasini sinab ko'rishingiz va o'rganish uslubingizga mos keladiganini tanlashingiz

kerak.Kartochkalar, grammatik tarjimalar, yoki boshqa yondashuvlardan foydalaning sizda juda ko'p imkoniyatlar mavjud.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning "Bizning farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart" deganlar. Qarangki, doimo yoshlar bilimli ilmi bo'lishi uchun mustaqillik yilidan beri anchagina ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda eng ko'p o'rganilayotgan tillar ingliz,fransuz, xitoy, ispan, nemis, yapon va italyan tillaridir. Agar biz ham harakatdan to'xtamasak bizning o'zbek tilimizni o'rganishni xohlovchilar ko'payishi shubhasizdir. Biz har birimiz yaratilayotgan bu sharoitlardan doimo oqilona va to'g'ri foydalanishimiz doimo o'qib, o'rganib, izlanib, o'z bilimimizni oshirib borsak o'z yurtimizni rivojlantirsak kelajak avlodlar ham huddi bobokalonlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Ibn Siyno, Al-Farg'oni, Al-Buxoriylar singari bizni ham ulug'lab yod etadilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://www.newsdle.com/blog/most-studied-foreign-languages>
2. <https://lingopie.com/blog/7-main-benefits-of-language-learning/>
3. <https://hikmatlar.uz/author/467>
4. <https://qalampir.uz/news/uzbekiston-ingliz-tili-buyicha-reytingda-93-urinni-egalladi-93108>
5. <https://potomac.edu/benefits-of-learning-a-second-language/>

## **ONLAYN TIL O'RGANISH PLATFORMALARI**

**Narzullayeva Aminaxon Shavkatjonovna<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi  
1-kurs I-XT-23 guruh talabasi*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

*<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada so'ngi yillarda rivojlanib borayotgan internetdagi onlayn til kurslari va o'rganish resurslarining samaradorligi haqida o'rganiladi. Tadqiqotda esa oflayn ta'limning afzalliklarini ta'kidlaydi hamda universitetlarga ushbu ma'lumotlardan samarali onlayn ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun qanday foydalanish maslahat beriladi.*

**Annotation:** *in this article, online language courses and learning resources on the internet that have been developing in recent years will be explained in detail. The study highlights the benefits of distance learning and advises universities on how to use that information to develop effective online learning programs that can later be implemented during crises.*

**Kalit so'zlar:** onlayn, oflayn, til kurslari, ingliz tili, texnologiya, platforma.

**Key words:** e-learning, offline, language courses, technology, platform.